



YOZUV VA UNING TURLARI (QADIMGI TURKIY YOZUVLAR MISOLIDA)

Toshtemirova Madina Umid qizi
Yo'ldosheva Maftuna Bahrom qizi
Azizova Sarvara Rustam qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Filologiya fakulteti 3-bosqich talabalari
mt2939232@gmail.com +998885604448
myoldosheva815@gmail.com +998507200501
sarvaraazizova9@gmail.com +998992124001
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17377293>

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozuvning o'ziga xos xususiyatlari, turlari, tarixi hamda ahamiyati haqida so'z boradi. Qadimgi turkiy yozuvlarining paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlariga alohida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Piktografik yozuv, ideografik, uyg'ur yozuvi, ilk yozuv, ko'k turk yozuvi, moniy yozuvi, uyg'ur yozuvi hamda braxma yozuvlari.

Abstract: This article discusses the specific features, types, history and significance of writing. The emergence and stages of development of ancient Turkic writing are discussed in detail.

Key words: Pictographic writing, ideographic, Uyghur writing, early writing, Blue Turkic writing, Mani writing, Uyghur writing and Brahman writing.

Yozuv fikrning tashqi shakliy ifodasi. Yozuv orqali kishilar fikr almashadi, insonlar bilan muloqatda bo'ladi. Yozuv tufayli minglab yillar avvalgi insonlar, urf-odatlar, voqealar va bundan tashqari ko'pgina ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Aslida esa bu yozuv o'zidan o'zi paydo bo'lmagan. Tilning taraqqiyoti tarixiy va uzluksiz jarayon, odamlar tilga ataylab, ongli ravishda biron-bir o'zgartirish kirita olmaydilar. Yozuv haqida esa bunday deb bodmaydi. Xalqlar fonetik yozuvning turli-lotin, arman, gruzin, slavyan, arab yozuvlari va ularning ayrim o'zgartirgan turlari kabi shakllarini yaratganlar [1].

Yozuvlarning turlarini hozirgi tilshunoslikda grafika bo'limi, dunyo tilshunosligida esa gramatologiya o'rganadi. Yozuvni o'rganuvchi olim gramatolog deyiladi. Yozuv o'z o'rnida turli shakl va turlarga bo'linadi. Jumladan, yozuv shakllari 3 xil.

1. Chapdan o'ngga qarab yoziladi, masalan, lotin yozuvi

2. O'ngdan chapga qarab yoziladi, masalan, arab yozuvi

3. Tepadan pastga qarab yoziladi, masalan, xitoy yozuvi

Yozuv turlari ham o'rganilish tarixiga ko'ra 3 guruhga bo'linadi:

1. Piktografik yozuv

2. Ideografik-logografik yozuv

3. Fonografik yozuv

Piktografik yozuv - bu eng qadimgi yozuv shakli bo'lib, unda fikr, voqea yoki narsalar rasmlar orqali ifodalangan. "Piktografiya" lotincha "pictus" - rasm, chizilgan va "grapho" - yozaman, chizaman degan so'zlardan kelib chiqqan. Ya'ni "rasimli yozuv" degan ma'noni bildiradi. Piktografik yozuv insoniyat tarixida yozuvning ilk bosqichi sifatida qaraladi. U miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarda paydo bo'lgan. Dastlab odamlar o'z fikrlarini g'or

devorlariga, tosh, yog'och yoki hayvon terilariga chizilgan rasmlar orqali ifoda etganlar. Masalan:

Ovga chiqqan odamning rasmi — “ov qilish” ma'nosini,

Quyosh rasmi — “kun”, “issiqlik”, yoki “yorug'lik” ma'nosini bildirgan.

Bu yozuv turidan misrliklar, shumnerlar foydalanishgan. Shummerlar rasmlarni yog'och taxtachalarga, misrliklar esa qog'ozga yozishgan. Shummerlar imlosida 500 ta belgi bo'lgan.

Amerika indeyslari, Tropik Afrika xalqlari, Avstraliya va Okeaniya tub aholisi, Sibirdagi ayrim elatlar (yukagir, nanay va boshqalar) orasida tarqalgan va xatto 20-asr gacha amal qilib kelgan. Piktografiyaning qadimiy namunalari paleolitga, ayrim olimlarning fikricha - neolitga mansubdir [2].

Bu yozuv turining hozirgacha yetib kelmaslik sabablari quyidagilar:

I. Insonlarning bir rasm va belgini turlicha tushunishi

II. Bu yozuv orqali his-tuyg'ularni ifodalab bo'lmasligi

III. Bu yozuv orqali kitoblar va qo'lyozmalar yaratib bo'lmasligi

IV. Mavhum so'zlarni piktografik yozuv orqali ifodalab bo'lmasligi

Ideografik yozuv yunonchada idea - ideya (g'oya), obraz va grapho - yozaman degan ma'nolarni anglatadi. Bu yozuv belgilar butun bir so'zni yoki tushunchani bildiradigan turi hisoblanadi. Qadimgi yozuv sistemalaridan Misr yozuvi, Xitoy yozuvi va boshqa ayrim yozuvlar ideografik yo'sinda bo'lgan [2].

Bu yozuv turida har bir belgi ma'noni, ya'ni tushunchani ifodalaydi, tovushni emas. Belgilar ramziy shaklga ega, ular endi rasmlar emas, balki ma'noni bildiruvchi belgilar tizimiga aylangan. Shu sababli, ideografik yozuv ko'p tilda so'zlashuvchi xalqlar orasida ham tushunarli bo'lgan. Masalan, qadimgi xitoy yozuvi ideografik tizimga asoslangan:

“山” - tog'

“日” - quyosh

“水” - suv

Bu belgilar hozirgi kunda ham xitoy, yapon, koreys yozuvlarida saqlanib qolgan.

Ushbu yozuvning keng miqyosda rivojlanmasligiga ham yuqorida keltirgan jihatlarimiz sabab bo'lgan:

I. Insonlarning bir rasm va belgini turlicha tushunishi

II. Bu yozuv orqali his-tuyg'ularni ifodalab bo'lmasligi

III. Bu yozuv orqali kitoblar va qo'lyozmalar yaratib bo'lmasligi

IV. Mavhum so'zlarni piktografik yozuv orqali ifodalab bo'lmasligi

Fonografiya - tilning fonetik tuzilishini, tovush tarkibini aniqroq, to'liqroq aks ettiruvchi yozuv turi; yozuv tarixida piktografik (rasmli) va ideografik (so'z-tushuncha) yozuvlardan keyingi bosqichdagi yozuv turi hisoblanadi. Ushbu yozuv belgilari so'zning tovush elementlarini, ya'ni bo'g'in va tovushlarni ifodalaydi. Shunga qarab fonografiyaning 2 turi - sillabik (bo'g'inli) yozuv va harf - tovush yozuvi kabi farqlanadi. Sillabik yozuv namunasi sifatida hind yozuvi - devanagarini, harf - tovush yozuvi namunasi sifatida esa kirill yozuvi asosidagi hozirgi o'zbek yozuvini ko'rsatish mumkin [3].

Fonografik yozuvning ilk ko'rinishi dastlab, finikiya yozuvida, keyinchalik lotin hamda krill yozuvlarida namoyon bo'lgan. Krill yozuvini aka-uka missioner olimlar – Krill va Mefodiy yaratganlar.

Biz mamlakatimizda qo'llanilgan yozuv turlarini quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

VI – VIII asrlar → turk yozuvi;

VIII asrdan XX asrgacha → arab yozuvi;

1921-yilda lotin yozuviga o'tish harakati boshlanadi;

1930-yilda to'liq lotin yozuviga o'tiladi;

1939-yilgacha lotin yozuvidan foydalaniladi;

1940-yilda krill yozuviga o'tiladi;

1993-yilgacha krill yozuvidan foydalaniladi;

1993-yildan hozirgi kungacha lotin yozuvi asosida shakllangan o'zbek alifbosidan foydalanib kelinmoqda.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bizgacha turli yozuvlardan foydalanilgan. Quyida shu yozuvlarga to'xtalib o'tamiz:

Ilk yozuv magik (ya'ni sehr- jodu) vazifani bajargan. Chex tilshunosi Ch.Loukotka ham bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, g'arb tilshunosligida ham N.Marr bilan I.Meshchaninovlarnikiga yaqin fikrlar paydo bo'ldi. Jumladan, G.Malleri Amerika hindulari tilida ko'pgina belgilar imoishoralar tilidan kelib chiqqanini isbotladi. Shu tariqa yozuv "tushuncha - so'z - yozuv belgisi" ko'rinishidagi yangi qo'shimcha aloqalarni yaratadi.

Ko'k turk yozuvining ildizlari va shakllangan davri xususida tugal bir to'xtamga kelingan emas. Turkiyshunoslikda bu masalada qator, xatto bir-biriga zid fikrdar bildirilgan. Ayrim olimlar uning asoslarini qadimgi turkiy tamg'alar (urug'-qabila belgilari)ga bog'laganlar. Ularning fikricha, ko'k turk xati ayni tamg'alar asosida shakllangan. Boshqa bir ko'zqarashga binoan, ushbu yozuv oromiy alifbolari, aniqrog'i, sug'd xatining negizida paydo bo'lgan. Sug'd xatining takomillashgan shakli mazkur alifboning shakllanuvda asos bo'lib xizmat qilgan; unga ayrim o'zgartishlar kiritish, yangi belgilar orttirish yo'li bilan yozuv turkiy tilga moslashtirilgan. Bu madaniy jarayon ko'k turk xoqonliklari davrida, taxminan, VI yuz yilliklarda yuz bergan.

Sug'd yozuvi miloddan avvalgi III asrlarda oromiy xati negizida shakllangan bo'lib, milodning XI asriga qadar sug'dlarning milliy yozuvi sifatida amal qilgan. Uzoq tarixiy birodarlik, qo'shnichilik va birga yashash ta'sirida ushbu yozuv turkiy xalqlar uchun ham xizmat qila boshlagan. Turkiy xalqlar orasida keng qo'llangan uyg'ur yozuvi ham ana shu xat negizida shakllandi.

Hozir «uyg'ur yozuvi» nomi bilan atalayotgan qadimgi turkiy alifbo o'tmish manbalarida bir qancha nom bilan yuritilgan. Mahmud Koshg'ariy «Devonu lug'otit turk» asarida uni «turkcha yozuv» deb tilga oladi. Alisher Navoiy maktublarining birida uni «turkcha xat» deb atagan. Manbalarda mazkur yozuv «uyg'ur xati», «mo'g'ul xati» deb ham yuritilgan. Chunonchi, XIII asrda yashab, ijod etgan shoirlardan Puri Bahoi Jomiy she'rlaridan birida uni «uyg'ur xati» (*xalft-i uyg'uri*); Ibn Arabshoh «Ajoibu-l-makdur fi-navoibi Taymur» otli asarida «uyg'ur xati», «Fokixatu-l- xulafo» asarida esa «mug'ul xati» degan. Ushbu yozuv «Hibatu-l-haqoyiq»ning 1480-yili Istanbulda Abdurazzoq baxshi ko'chirgan nusxasida «mo'g'ul xati» deb atalgan.

Kunimizgacha yetib kelgan uyg'r yozuvli yodgorliklarning eng qadimgilari islom davridan ancha burun yaratilgan. Ushbu obidalar o'sha davr turklari ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayotining barcha sohalarini qamraydi. Adabiy, diniy- falsafiy, tarixiy, ilmiy asarlar, huquqiy, rasmiydiplomatik bitiglar (yorliq, tilxat, guvoohnoma va h.k.), xo'jalik ishlariga oid matnlar, qabrtoshlar, tashrifnoma va boshqalar shular jumlasidandir. Mavjud yodgorliklar ichida, ayniqsa, moniylik, buddizm, nasroniylik muhitida yaratilgan diniy-falsafiy asarlar salmoqli o'ringa ega. Ularning ko'pi qo'shni anatkak (sanskrit), to'xri (tohar), sug'd, tavg'ach (xitoy) tillaridan qadimgi turkiyga o'girilgan bo'lib, o'sha davr turkiy adabiyotida tarjimachilik ham muhim o'rin egallaganidan dalolat beradi.

Braxma yozuvi bo'g'in yozuvi bo'lib, qadimgi sanskritcha alifbo negizida shakllangan. Turon zaminiga buddizm ta'sirida kirib kelgan [4].

Xulosa qilib aytganda, yozuv insoniyat madaniyatining eng muhim yutug'i, tafakkur mahsulini avloddan avlodga yetkazishning eng ishonchli vositasidir. Dastlabki piktografik shakllardan tortib, bugungi zamonaviy grafik tizimlargacha bo'lgan jarayon inson tafakkurining uzluksiz taraqqiyotini ifodalaydi. Yozuvning rivojlanish bosqichlarini o'rganish orqali biz inson tafakkuri, muloqot madaniyati va ilm-fan taraqqiyotining tarixiy ildizlarini anglaymiz. Ayniqsa, O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqining yozuv madaniyati qadimiy bitiklardan boshlab arab, lotin va kirill yozuvlariga qadar bo'lgan davrlarni bosib o'tgan. Bu jarayon nafaqat yozuv tizimidagi o'zgarishlarni, balki xalqning ma'naviy hayoti, dunyoqarashi va madaniy aloqalarining kengayishini ham ifodalaydi. Bugungi kunda yozuvning turlari nafaqat tarixiy meros sifatida, balki axborot texnologiyalari asrida ham beqiyos ahamiyatga ega. Har bir yozuv turi o'ziga xos fonetik, grafemik va estetik xususiyatlari bilan inson nutqining boy ifoda imkoniyatlarini ochib beradi. Shuningdek, yozuv insonning fikrini aniqlik, izchillik va mantiqiylik bilan ifoda etishga yordam beradi. Shunday qilib, yozuv turlarini chuqur o'rganish – nafaqat tilshunoslikning, balki madaniyatshunoslik, tarixshunoslik va antropologiyaning ham muhim yo'nalishidir. Yozuv insoniyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biri sifatida jamiyat hayotida doimo markaziy o'rin tutib kelgan va kelajakda ham tafakkur, bilim hamda madaniyatni rivojlantirishning eng asosiy omili bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduxoliqova Sh. Yozuv va uning shakllari
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
4. O'zbek tili tarixi / O'quv-uslubiy majmua.–Toshkent, 2020. –B.